

## O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA NOTARIAT TIZIMIDAGI YANGI ISLOHOTLAR

Ibrohimov Muhammadjon Dilshod o'g'li

Samarqand Davlat Universiteti Yuridik fakultet 2-kurs talabasi

### ANNOTATSIYA

*O'zbekiston Respublikasida Notariat tizimida amalgalashishga oshirilayotgan islohotlar natijasida ko'plab fuqarolarning ya'ni yuridik hamda jismoniy shaxsalrning murojaatlari ijrosi tez va sifatli ko'rinishda amalgalashishga oshirilmoqda Mamlakatimizda bu sohada amalgalashishga oshirilayotgan islohotlar o'z navbatida nazarda tutilgan maqsad vazifalarga erishishda asosiy omil bo'lib xizmat qilmoqda.*

**Kalit so'zlar:** Notariat, islohot, kurier, tekshiruv, xususiy notarius, xalqaro notarius, ekspertlik komissiya.

### ABSTRACT

*As a result of the ongoing reforms in the notarial system of the Republic of Uzbekistan, the execution of appeals of many citizens, so legal entities and individuals, is carried out quickly and efficiently. Reforms in this area in our country, in turn, serve as a key factor in achieving the goals and objectives.*

**Keywords:** Notary, reform, courier, inspection, private notary, international notary, expert commission.

### АННОТАЦИЯ

*В результате проводимых реформ в нотариальной системе Республики Узбекистан обращения многих граждан, юридических и физических лиц, рассматриваются быстро и качественно. Реформы в этой сфере в нашей стране, в свою очередь, служат ключевым фактором достижения поставленных целей и задач.*

**Ключевые слова:** Нотариус, реформа, курьер, проверка, частный нотариус, международный нотариус, экспертная комиссия.

### KIRISH

So'nggi yillarda mamlakatimizda notariat institutining samarali faoliyat ko'rsatishini ta'minlash hamda notarial idoralar tomonidan jismoniy va yuridik shaxslarga huquqiy xizmat ko'rsatish sifati va darajasini oshirish bo'yicha izchil ishlar amalgalashishga oshirilmoqda. Notariat tizimini byudjetdan tashqari modeliga bosqichma-bosqich o'tish va uni fuqarolik-huquqiy hamda iqtisodiy nizolarning oldini olishga qaratilgan institut sifatida yanada rivojlantirish ko'zda tutilgan edi.

O‘zbekiston Respublikasida Notariat tizimida ko‘plab o‘zgartirishlar hamda yangi islohotlar amalga oshirilmoqda. Notariat tizimini tubdan isloh qilish bo‘yicha ko‘plab Notariat to‘g`risidagi qonun hujjatlariga o‘zgartirish va qo‘srimchalar kiritilmoqda shu bilan birga jiddiy o‘zgarishlar ham amalga oshirilmoqda.

Shu bois davlatimiz rahbarining 2019-yil 9-sentyabrdagi PF-5816 – son “O‘zbekiston Respublikasida notariat tizimini tubdan isloh qilish chora-tadbirlari to‘g`risida”gi Farmoni qabul qilindi. Farmon asosida 2020-yil 1-yanvardan davlat notarial idoralari bosqichma-bosqich nodavlat notarial idoralar etib qayta tashkil qilish xususiy amaliyat bilan shug`ullanuvchi notariuslar faoliyatini yo‘lga qo‘slishida muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Shu asosida notariuslarni birlashtiruvchi hamda ularning faoliyatini muvofiqlashtiruvchi yagona tuzilma sufatida O‘zbekiston Notariat palatasi tashkil etildi. Uning huquq va majburiyatları, unga a`zo bo‘lgan notariat idoralari faoliyatini muvofiqlashtirish tizimi yo‘lga qo‘sildi.

Mamlakatimizda bu sohada amalga oshirilayotgan islohotlar o‘z navbatida nazarda tutilgan maqsad vazifalarga erishishda asosiy omil bo‘lib xizmat qilmoqda.

Shu asosida notariuslarni birlashtiruvchi hamda ularning faoliyatini muvofiqlashtiruvchi yagona tuzilma sufatida O‘zbekiston Notariat palatasi tashkil etildi. Uning huquq va majburiyatları, unga a`zo bo‘lgan notariat idoralari faoliyatini muvofiqlashtirish tizimi yo‘lga qo‘sildi.

## **MUHOKAMA VA NATIJALAR**

Davlat Notariuslari endi qayd etish lozimki, zarur miqdorda xususiy idoralar shakllanmaguncha faoliyatini davom ettiradi. Xususiy amaliyat bilan shug`ullanuvchi notariuslarning tashkil qilinishi birinchidan tizimda sog`lom raqobat muhitini paydo qilib, notarial harakatlarni rasmiylashtirish vaqtin deyarli uch barobar tezlashishiga olib keldi.

Yangi tizimga o‘tilayotgani davlat notarial idoralari faoliyatini tashkil etish bilan bog`liq davlat resurslari tejalishini ta`minlaydi. Qolaversa, endi notariuslarning sodir etgan qilmishlari hamda jismoniy va yuridik shaxslarga yetkazgan zararlari uchun davlat javobgar bo‘lmaydi.

Xususiy amaliyat bilan shug`ullanuvchi notarius noqonuniy harakati natijasida yetkazilgan zararni to‘liq qoplashi, buning uchun notariusning javobgarligi majburiy sug`urtalanishi ham eng muhim o‘zgarishlardan biri hisoblanadi.

Xususiy amaliyat bilan shug`ullanuvchi notariuslarning faoliyati ham monitoring qilib boriladigan bo‘ldi. Bunday nazoratni O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi hamda adliya boshqarmalari amalga oshiradi. Ularning odob-axloq

qoidalari va kasb majburiyatlariga rioya etishi ustidan nazorat Notarial palata va uning hududiy boshqarmalari tomonidan amalga oshiriladi.

Shuningdek notariuslar xuzurida "kurier", ya`ni xujjat tushuvchi xodim lavozimi joriy etildi. Ular fuqarolar o`rniga turli tashkilotlardan kerakli xujjatlarni to`plab olib kelish vazifasini bajaradi. Bunda fuqarolarning davlat idora va tashkilotlariga borib, turli ovoragarchilik va vaqt yo`qotish evaziga xujjat to`plash holatlariga barxam berildi.

Notariat tizimida mavjud muammolarni bartaraf etish va notariat tizimini zamon talablariga mos keladigan sohaga aylantirish maqsadida Adliya vazirligi huzurida notariat sohasida yagona amaliyotni shakllantirish bo`yicha Ekspertlik komissiyasi tashkil etildi. Ekspertlik komissiyasi tarkibiga jamoatchilik asosida faoliyat ko`rsatuvchi 7 nafar a`zodan iborat bo`lib, uning tarkibiga huquq sohasidagi yetakchi mutaxassis-olimlar, tajribali notariuslar va Adliya vazirligining mas`ul hodimlari kiritildi. Komissiyaga notarial harakatlarni amalga oshirishda joylardagi mavjud muammolarni aniqlash va ularni qonuniy hal qilish sohada bir xil amaliyotni ta`minlash, qonun hujjatlaridagi huquqiy nuqsonlarni, korrupsiyaga, boshqa huquqbuzarliklarni sodir etishga, fuqarolardan ortiqcha hujjatlar talab qilishga, ularni turli xil ovora-sarson qilishga yo`l qo`ymaslik vazifasi bo`yicha takliflar ishlab chiqish yuklatildi. Bundan tashqari, komissiyaga notarial harakatlarni bajarish uchun taqdim qilinadigan hujjat turlarini tubdan qisqartirish, fuqarolarning ortiqcha ovoragarchiliginı oldini olish maqsadida notarial harakatlarni bajarish uchun zarur bo`lgan barcha hujjatlarni elektron tizim orqali olish hamda qonunchilikda notarial tasdiqlash majburiy talab qilinadigan bitim va hujjatlarning turlarini qisqartirishning qonuniy yo`llarini izlab topish vazifalari topshirildi.

Hulosa qilib aytadigan bo`lsam; ushbu Ekspertlik komissiyasining tashkil qilinishi kelgusida notarial sohasidagi ishlarning qonuniy hal qilish, bir xillikni ta`minlash yo`li bilan jismoniy va yuridik shaxslarga sifatli va ovoragarchiliklarsiz qulay huquqiy xizmat ko`rsatishda muhim o`rin tutadi.

Eng e`tiborli jihat, navbat kutish masalalarida ham fuqarolarga yengilliklar yaratildi. Xususan, davlat notarial idoralarida maxsus texnik vositalar o`rnatalidi va bu texnik moslamalar xaqqoniy navbat tizimini shakllantiradi. Bu esa notasrius qabuliga navbatsiz kirish, turli "tanish-bilishchilik" holatlarini oldini olishga xizmat qiladi.

Hozirgi kunda yangi o`zgarishlardan biri bu ayrim turdag'i notarial harakatlar masofadan turib amalga oshirish tizimi ishga tushiriladigan bo`ldi. Jismoniy hamda yuridik shaxslarning notarial idoraga kelmasdan, masofadan turib murojaat qilishi,

---

navbatga yozilishi va ayrim turdag'i notarial xizmatlardan onlayn foydalanish tartibi belgilanmoqda

Xorijiy tajribada notariatning lotin va anglo-sakson turlari mavjud bo'lib, O'zbekiston lotin notariat turiga mansub hisoblanadi. Aytish lozimki notariatning har ikki turida ham nodavlat shakli ustunlik mavqeyiga ega. Xalqaro Notariuslar ittifoqi 1948-yil tashkil etilgan bo'lib, hozirda unga lotin modelidagi 89 mamlakatning notariat tizimi a`zo.

Bugungi kunda aksariyat xorijiy davlatlarda (Germaniya, Fransiya, Italiya, Estoniya, Avstriya, Vengriya, Turkiya va boshqa) shu jumladan MDH davlatlarida (O'zbekiston, Tojikiston va Turkmanistondan tashqari) lotin notariat prinsiplariga asoslangan notariatning faol nodavlat shakli muvaffaqiyatli faoliyat yuritmoqda.

Ilg'or xorijiy tajriba jismoniy va yuridik shaxslarning nizolarni oldini olish funksiyasini bajaruvchi notariatning faol nodavlat modeliga bo'lган ehtiyoj ortib borayotg'anini ko'rsatmoqda. Bunday notariat o'zgaruvchan ijtimoiy jarayonlarga moslashgan holda javob berish, iste'molchilarining talablari doirasida tez o'zgara olish qobiliyatiga ega.

Notariatning bunday faol nodavlat shakliga o'tishi Natijasida notariusning moddiy manfaatdorligi oshishi aholiga tezkor va sifatli notariat xizmat ko'rsatishini ta'minlaydi. Uning nizolarning oldini oluvchi institut sifatida yanada rivojlanishiga xizmat qiladi.

O'zbekiston va Germaniyaning notarial tizimi bir-biriga o'xshash bo'lib, mamlakatimizda Germaniya tajribasini qo'llash orqali bugungi kunda ko'plab yutuqlarga erishilmoqda, buning sababi shundaki, har ikkala davlat roman-german huquq oilasiga mansubdir. Demak, birining huquqiy islohotlarini ikkinchida qo'llash ko'plab muammolarni keltirib chiqarmasligi mumkin.

Bundan tashqari, Yevropa va Osiyoning ko'plab davlatlarining notariat institutini o'r ganishimiz va tadbiq qilishimiz mumkin, ularning har birida o'ziga xos huquqiy xizmat ko'rsatishning samarali yo'llari allaqachon amaliyotga joriy etilgan. Bu esa o'z navbatida fuqarolarning davlat organlarida to'laqonli manfaatlari himoyalanishi hamda ularga muammolarini hal qilishda ko'maklashmoqda.

Ana shunday keng miqyosdagi o'r ganish va har tomonlama izlanishlar natijasida, biz bugungi kunda mamlakatimiz huquq tizimida keng miqyosda islohotlarning guvohi va o'z navbatida ishtirokchisiga aylanmoqdamiz. Negaki, har bir xatti-harakatimiz negizida fuqaroviylar munosabatlar yotadi va ular tegishli normalar bilan tartibga solinadi. Ushbu ilmiy tadqiqot ishi orqali biz tomonimizdan ilgari surilgan

yuqoridagi takliflarlarni amaliyatga tadbiq qilish orqali, quyidagi natijalarga erishish mumkin, ya’ni:

- Tizimni optimallashtirish va moddiy-texnik bazasini mustahkamlash;
  - Idoralararo bog‘liqlikni muvofiqlashtirish;
  - Fuqarolarning shaxsi buyicha ma’lumot olishni tizimlashtirish va soddalashtirish;
  - Davlat organlar faoliyatida shaffoflik va qonuniylikni ta’minlash;
- Notariuslar funksiyalari doirasi kengaytirildi 2020-yil 1-yanvardan;
- Fuqarolik-huquqiy munosabatlarda sudgacha bo‘lgan jarayonda dalillarni ta`minlash (guvohlarni so‘roq qilish, yozma va ashyoviy dalillarni ko‘zdan kechirish va guvohlantirish, ekspertiza tayinlash, internet tarmog`idagi dalillarni ta`minlash).
  - Fuqarolik-huquqiy munosabatlarda, shu jumladan mulkiy va meros masalalarida mediator vazifalarini bajarish.
  - Yaratilgan mualliflik va turdosh huquq obyektining taqdim etilgan vaqtini tasdiqlashi.

Hukumat qarori (464-son, 27.07.2021 y.) bilan Notariat to‘g`risidagi qonunchilik hujjatlariga rioya etilishi ustidan nazorat qilish va monitoring qilish tartibi belgilandi. Mazkur qaror loyihasi bilan quyidagilar belgilandi:

- Nazorat tadbirlari o‘tkazishning taskiliy asoslari belgilab beriladi;
- Notariuslar faoliyatida rejali tekshirish, qisqa muddatli tekshirish va kamerali tekshirish o‘tkazish tartibi belgilabdi;
- Notariuslar faoliyatini monitoring qilish talab va shartlari, ularni amalga oshirish tartibi nazarda tutiladi:

Bu qaror bilan quyidagi tekshirishlar orqali amalga oshiriladi:

➤ **Rejali tekshirish** - adliya organlari tomonidan tasdiqlangan yillik (chorak) ish rejasiga kiritilgan va har uch yilda bir marta o‘tkaziladigan nazorat shakli:

➤ **Qisqa muddatli tekshirish** – notariuslar faoliyati adliya organi tomoniudan reyd (har yili kamida bir marta), “sirli mijoz” hamda xizmat tekshiruvি tarzida amalga oshiriladigan nazorat shakli:

➤ **Kamerali tekshirish** – adliya organlari tomonidan o‘zi joylashgan manzil bo‘yicha notariuslarning notarial harakatlarni rasmiylashtirishda qonunchilikka rioya etilishini “Notarius” avtyomatlashtirilgan axborot tizimidagi ma’lumotlar hamda adliya organida mavjud bo‘lgan boshqa hujjatlarni o‘rganish, tahlil qilish va umumlashtirish orqali amalga oshiriladigan nazorat shakli.

Shu bilan birga Notarius ish faoliyatini dastlabki tekshirish u ish boshlaganidan bir yil o‘tgandan so‘ng amalga oshiriladigan bo‘ldi.

Rejali tekshirish muddati bir notarius faoliyatini o‘rganish uchun 5 ish kunidan oshmasligi shart.

Reyd tadbiri adliya organi rahbarining buyrug‘iga asosan amalga oshirilib, uni o‘tkazish muddati 1 ish kuni etib belgilanadi.

#### **“Sirli mijoz” tadbiri quyidagi hollarda o‘tkaziladi:**

➤ notarial harakatlarning sifati va tezkorligi adliya organida shubha uyg‘otganda, ushbu sohada huquqbuzarliklar sodir etilayotganligi haqidagi ma’lumotlarga aniqlik kiritish zarurati tug‘ilganda;

➤ huquqiy xizmat ko‘rsatish jarayonidan noroziligi haqidagi murojaatlar kelib tushganda.

“Sirli mijoz” tadbirini o‘tkazish uchun 1 ish kuni, davomli notarial harakatlaruchun – ushbu harakatning oxirgi kuniga qadar muddat belgilanadi.

• Kameral tekshirish adliya organi rahbarining buyrug‘i asosida amalga oshiriladi va u muntazam ravishda o‘tkaziladi.

• Barcha turdag‘i tekshirish natijasi bo‘yicha tegishli ma’lumotnomalar tuziladi.

Loyiha qabul qilinishi bilan notariuslar tomonidan litsenziya talablari va shartlariga, notariat to‘g‘risidagi qonun hujjatlariga, notarial harakatlar maxfiyligiga va notarius qasamyodiga rioya qilinishi yuzasidan tekshirishlar o‘tkazish hamda ular faoliyatida onlayn tarzda monitoring o‘tkazish bilan bog‘liq munosabatlar huquqiy tartibga solinishi qayd etilgan.ushbu loyihaning qulayliklari notarial xizmatlarni qonuniy asosda, qulay tarzda ko‘rsatilishini ta`minlaydi.

Mamlakatimizda bu sohada amalga oshirilayotgan islohotlar o‘z navbatida nazarda tutilgan maqsad vazifalarga erishishda asosiy omil bo‘lib xizmat qilmoqda.

#### **XULOSA**

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsam Notariat sohasida amalga oshirilayotgan barcha o‘zgarishlar fuqarolarimizga yanada qulayliklar yaratish davlat idoralari tomonidan ularga ko‘rsatilayotgan xizmatlar sifatini yaxshilash, ortiqcha ovoragarchiliklar va sarsongarchiliklarga korruption harkatlarga barham berish, qo‘srimcha mablag‘ sarflanishi holatlarini oldini olish, bir so‘z bilan aytganda, xalqimiz turmush tarzini yengillashtirishga qaratilgan desak, mubolag‘a bo‘lmaydi.

#### **REFERENCES**

1. “O‘zbekiston Respublikasi Notariat to‘g‘risida” gi Qonuni 26.12.1996 343-соҳ

- 
2. O‘zbekiston Respublikasi 2019 - yil 9 - dekabrdagi “Notariat tizimini tubdan isloh qilinishi munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasi ayrim qonun hujjatlariga o‘zgartirish va qo‘sishimchalar kiritish to‘g‘risid” agi qonuni.
  3. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 16.03.2020 156-сон“Nodavlat Notarial faoliyatni tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujatlarni tasdiqlash to‘g‘risida” Qaror